MILLIY IQTISODIY XAVFSIZLIKNI BELGILOVCHI OMIL SIFATIDA BANK SEKTORI BARQARORLIGI: XATARLAR, KO'RSATKICHLAR VA SIYOSAT CHORALARI

Ma'murjonov Komiljon Muzaffar o'g'li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Iqtisodiyot fakulteti 3-kurs talabasi
komiljonmamurjonov41@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada davlatning milliy iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda bank sektorining roli va uning barqarorligi, shuningdek bank tizimining iqtisodiy xavfsizligiga ta'sir qilivchi ekzogen va endogen xatarlar, bank tizimining iqtisodiy va monetar xavfsizlik ko'rsatkichlari va ularni hal qiluvchi siyoziy-normativ masalalarga bag'ishlangan bo'lib, unda mamlakarda Markaziy bank tomonidan bank faoliyatini tartibga solish va nazorat yuritish darajasi, moliyaviy xavfsizlik indikatorlari, imflatsion targetlash, rentabillik, likvidlik muammolari, jumladan kredit, kapital va valyuta tizimi xatarlari aniqlangan. Shu bilan birgalikda, O'zbekiston Respunlikasining Markaziy banki tomonidan bank tizimini iqtisodiy yaxshilash uchun amalga oshirilayotgan islohotlarga va "O'zbekiston – 2030" strategiyasida belgilangan maqsadlarga e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: Milliy iqtisodiy xavfsizlik, kapital aktivlar, rentabellik, muammoli kreditlar (NPL), bank aktivlari, raqamli transformatsiya, likvidlik.

Kirish

"Maqsad — Harakat — Natija" zanjiriga asoslangan mutlaqo yangi strategik rejalashtirish va rivojlanish tizimi va 2030 – yilga qadar mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy-huquqiy tomondan belgilab berilgan islohotlarga qaratilgan 2023-yil 11-sentabrda qabul qilingan "O'zbekiston — 2030" strategiyasi mamlakat taraqqiyotining o'rta muddatga mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlari, maqsadlari hamda ularga erishish bo'yicha samaradorlik ko'rsatkichlarini belgilab berdi va bu maqsadlar asosida mamlakatning milliy iqtisodiy xavfsizligini taminlovchi o'ringa ega bo'lgan bank sektorining barqarorligini ta'minlash va bu boradagi xavf-xatarlarni oldini olish va unga mos siyosiy choralar ko'rishga katta e'tibor qaratilgandir.[1]

Mamlakatning milliy iqtisodiy xavfsizligi davlatning barqaror rivojlanishi, iqtisodiy islohotlar, investitsiya muhiti, bandlik, resurslar mavjudligi hamda xalqaro iqtisodiyotga integratsiyalashuvi bilan bog'liqdir.

Milliy iqtisodiyotning samarali faoliyat yuritishini ta'minlashda bank sektori muhim rol o'ynaydi. Bank tizimi pul resurslarining katta qismini nazorat qiladi, ularning harakatini, taqsimlanishini va qayta taqsimlanishini ta'minlaydi, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar o'rtasidagi moliyaviy-iqtisodiy munosabatlarning paydo bo'lishiga, uning rivojlanishiga yordam beradi. Bank tizimining asosiy funktsiyalarini lozim darajada bajarmaganligi xo'jalik yurituvchi sub'ektlar o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarni buzadi va mamlakatning iqtisodiy va milliy xavfsizligiga asosiy tahdidlardan biri sifatida baholanadi.

Shunday qilib, davlat moliyaviy xavfsizligini ta'minlashni talab qiladi. Bank sektorining xavfsizligiga salbiy ta'sir etuvchi omillarga ustav kapitalida xorijiy kapital ulushi yuqori bo'lgan kredit korxonalarining ko'payishi, induvidal tadbirkorlar va yuridik shaxslarning kreditor qarzdorliklarini ortishi hamda kapital aktivlar rentabelligining pasayishi bo'lib hisoblanadi.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

O'zbekiston misolida oladigan bo'lsak, bank sektorida milliy iqtisoddiy xavfzislikni ta'minlash uchun Markaziy bankning tijorat banklarini nazorat qilishi lozim va bu nazorat bilan bog'liq faoliyatining quyidagi asosiy yo'nalishlari qonun bilan mustahkamlandi:

- Bank tizimining xavfsizligi, barqarorligi va samaradorligini ta'minlash;
- Banklar faoliyatini litsenziyalash jarayonida bank sohasiga faqatgina ishonchli banklarning kirib kelishini nazorat qilish;
- Muammoli banklar faoliyatiga o'z vaqtida ta'sir o'tkazish va ularning muammolarini tezlik bilan hal etish;
- Bank tizimida sog'lom raqobat muhitini yaratish;
- Zarur holatda, bank tizimiga minimal darajada salbiy ta'sir ko'rsatgan holda alohida banklarni tugatish choralarini ko'rish. [2]

Mavzuga oid adabiyotlar sharxi

Iqtisodiy adabiyotlarda ushbu masala bo'yicha ko'plab tadqiqotlar olib borilgan. Asosiy maqsad - iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash borasida bank va moliyaviy tizimda mavjud bo'lgan xatarlarni aniqlash and ularga mor chora ko'rish va mexanizmlarni ishlab chiqishdan iborat.

Minskiy H. P. (1986) fikriga ko'ra, banklar barqaror faoliyat yuritganda, ular likvidlikni ta'minlash, xatarlarni diversifikatsiya qilish hamda to'lov tizimlarining uzluksiz ishlashini kafolatlash orqali iqtisodiyotning barqaror o'sishiga hissa qo'shadilar. Aksincha, tizimli uzilishlar ushbu asosiy vositachilik funksiyalariga putur yetkazganda moliyaviy beqarorlik yuzaga keladi; bu esa kreditlash hajmining qisqarishiga, aktivlar narxlarining keskin tushib ketishiga va kengroq miqyosdagi makroiqtisodiy pasayishga olib keladi.

Diamond D. W & Dybvig PH (1983) ta'kidlashicha, bank tizimiga xos bo'lgan uzoq muddatli likvid bo'lmagan aktivlarni qisqa muddatli depozitlar hisobiga moliyalashtirishdan kelib chiqadigan - likvidlik nomutanosibligi banklarni, hatto ular aslida to'lovga layoqatsiz bo'lmagan taqdirda ham, omonatchilarning ommaviy ravishda mablag'larini qaytarib olish xavfiga duchor qiladi. Bunday zaiflik tizimli barqarorlikni saqlashda omonatchilar ishonchi, ehtiyotkorona tartibga solish hamda «oxirgi instansiya kreditori» mexanizmlari naqadar muhim ekanligini yaqqol ko'rsatadi.

Metodologiya

Maqolada ilmiy kuzatuv, tahlil va sintez usullaridan samarali foydalanilgan. Shuningdek, Xalqaro valyuta jamg'armasi (XVJ) va O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining me'yoriy hujjatlarida tavsiya etilgan, mamlakat bank xavfsizligini baholashga oid ko'rsatkichlar qo'llanilgan.

Tahlil va natijalar

Bank sektorining barqarorligi milliy iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Chunki banklar iqtisodiyotga moliyaviy resurslarni yo'naltirish, investitsion faollikni qo'llab-quvvatlash va to'lov tizimining uzluksiz ishlashini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Shu sababli kredit portfelining sifati, muammoli kreditlar (NPL) darajasi va kredit risklarini boshqarish samaradorligi bank sektorining barqarorligini baholashda asosiy ko'rsatkichlar sifatida qaraladi.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Tijorat banklarining muammoli kreditlari (NPL) to`g`risida 2026-yil 1-sentabr holatiga ma'lumot

mlrd. so`m

№	Bank nomi	Kreditlar	Muammoli kreditlar (NPL)	Muammoli kreditlarning jami kreditlardagi ulushi
Jami		**648,947**	**24,023**	**3.7%**
Davlat ulushi mavjud banklar		**421,463**	**16,546**	**3.9%**
1	O'zmilliybank	103,974	3,173	3.1%
2	Agrobank	94,678	3,209	3.4%
3	O'zsanoatqurilishbank	59,064	1,802	3.1%
4	Asaka bank	39,042	1,706	4.4%
5	Xalq banki	37,635	1,560	4.1%
6	Biznesni rivojlantirish banki	26,198	1,532	5.8%
7	Mikrokreditbank	23,237	2,138	9.2%
8	Aloqa bank	22,680	855	3.8%
9	Turon bank	14,956	571	3.8%
Boshqa banklar		**227,484**	**7,477**	**3.3%**
10	Ipoteka-bank	36,586	1,112	3.0%
11	Kapital bank	39,272	1,150	2.9%
12	Hamkorbank	30,757	431	1.4%
13	Ipak yo'li bank	19,337	340	1.8%
14	Orient Finance bank	13,726	257	1.9%
15	Tibisi bank	7,715	1,032	13.4%
16	Anor bank	12,684	1,111	8.8%
17	Davr bank	9,698	284	2.9%
18	Invest Finance bank	12,163	288	2.4%
19	Trastbank	9,196	338	3.7%
20	Tenge bank	3,911	191	4.9%
21	Asia Alliance bank	5,481	107	2.0%
22	KDB Bank O'zbekiston	4,265	0.0	0.0%
23	Hayot bank	7,362	256	3.5%
24	Ziraat Bank Uzbekistan	2,615	125	4.8%
25	Universal bank	2,594	66	2.5%
26	Garant bank	1,653	128	7.7%
27	AVO bank	1,514	104	6.8%
28	Apeks bank	3,592	1.8	0.1%
29	Oktobank	820	0.0	0.0%
30	Madad Invest bank	583	59	10.0%
31	Poytaxt bank	709	93	13.2%
32	Open bank	727	3	0.5%
33	Uzum bank	366	0.1	0.0%
34	Soderot bank	9	0.4	4.0%
35	Tayanch mikromoliya banki	152	0.8	0.6%

1-jadval Tijorat banklarining muammoli kreditlar bo'yicha ma'lumot

Quyidagi O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlariga ko'ra, 2026-yil 1-sentabr holatida tijorat banklarining jami kreditlari 648 947 mlrd so'mni tashkil etgan. Shundan 24 023 mlrd so'mi

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

muammoli kreditlarga to‘g‘ri kelib (NPL), NPL ko‘rsatkichi 3,7 foizni tashkil qilgan. Mazkur ko‘rsatkich bank kredit portfelining asosiy qismi muammoli toifaga kirmasligini ko‘rsatsa-da, muammoli kreditlarning mutlaq hajmi kredit risklarini doimiy monitoring qilish va samarali boshqarish zarurligini anglatadi. Shuningdek, Markaziy bank shularni ta’kidlaydiki, bank aktivlari sifatini oshirish, kredit siyosatini takomillashtirish, kredit qo‘mitalari samaradorligini kuchaytirish, skoring modellaridan foydalanish va qarz oluvchilarning to‘lov qobiliyatini aniqroq baholash masalalariga ham muhimdir. Bundan tashqari, muammoli kreditlarni restrukturizatsiya qilish, qarzlarni undirish mexanizmlarini takomillashtirish hamda muammoli aktivlarni ixtisoslashgan tuzilmalar orqali boshqarish borasida tavsiyalar beriladi. [3]

Milliy iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash uchun bank tizimida raqamli transformatsiya jarayonlariga ham alohida e’tibor berilishi lozimdir. Markaziy bank kuzatuvlariga ko’ra, sun’iy intelekt va mashinali o’qitish texnologiyalaridan makroiqtisodiy tahlil, iqtiosodiy prognozlash, bank nazorati va to’lov infratuzilmalarini rivojlantirishda foydalanish istiqbollari ko’rib chiqildi. Shu bilan birga, yangi texnologiyalarni joriy etish operatsion barqarorlikni ta’minlash, kiberxavfsizlikni kuchaytirish va xatarlarni samarali boshqarish mexanizmlarini rivojlantirish bilan uyg’un holda amalga oshirilishi zarur. [4]

Bank sektorini tizimli xavflarini baholash ham muhim ahamiyat kasb etadi. MSBD (Moliyaviy sektorni baholash dasturi) doirasidagi miqdoriy tahlil banklarning kredit xavfiga (shu jumladan, xorijiy valyuta ta’sirida yuzaga keladigan bilvosita kredit xavfiga) va likvidlik xavfiga duchor bo‘lish darajasiga qaratildi. Aktivlar sifati oshirib ko‘rsatilishi tufayli yanada kuchaygan kredit xavfi, asosan, no-moliyaviy korxonalarga (NMK) berilgan kreditlarning katta ulushi bilan bog‘liq. Asosiy xavotirlar hukumat dasturlari doirasidagi kreditlash, valyuta xatarlaridan himoyalanmagan qarz oluvchilarga xorijiy valyutada kreditlar berish hamda doimiy ravishda zarar ko‘rib ishlayotgan korporativ mijozlarni kreditlash masalalari bilan bog‘liq. Kreditlarning to‘lov muddati yetib kelishi bilan, aholiga berilgan kreditlar sifatining biroz yomonlashuvi ham ehtimoldan xoli emas. Tashqi qarzni qayta moliyalashtirish (muddatini uzaytirish) bilan bog‘liq likvidlik xavfi shuki, ushbu mablag‘larning katta qismi uzoq muddatli bo‘lib, xalqaro moliya institutlari hissasiga to‘g‘ri keladi; bu esa mazkur xavfni yumshatadi. To‘lov qobiliyati va likvidlik bo‘yicha stress-testlar barcha 34 ta bankni qamrab oldi. [5]

Xulosa

Yuqoridagi tahlil natijalariga ko’ra, quyidagi xulosalani olish mumkin. Bank sektorida bir qator muammolar borligi aniqlandi, jumladan, banklarda muammoli kreditlarning hajmini oshib ketganligi, likvidlik muammolari, banklarning transformatsiya jarayonida kiberxavfsizlik muammolari, va kredit xavflarining mavjudligini ko’rishimiz mumkin. Shunga qaramasdan, milliy iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash uchun bank tizimida bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilishi tavsiya qilinadi. Xususan, markaziy bank tomonidan bank muassasalarining faoliyatini nazorat qilish sifati oshirish, to’g’ri makroprudensial tizimni yuritish, kredit xavflarini oldini olish, muammoli kreditlarni restrukturizatsiya qilish, qarzlarni undirish shu bilan birga bank o’tkazmalarida va martoiqtisodiy prognozlashda kiberxavfsizlik muammosini hal qilish uchun sun’iy intellekt va onlayn to’lov tizimlaridan foydalanish tavsiya etiladi.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Foydalanilgan adabiytlar ro'yxati:

1. O'zbekiston – 2030 strategiyasi
2. Mamatov A.A., Abulqosimov H.P., Mamatov S.A., Saidgaziyeva S.Sh. Iqtisodiy xavfsizlik. Darslik. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti, 2022.- 246-250-betlar
3. http//www.cbu.uz – O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari
4. Markaziy bank "Monetary Policy Dialogue – 2026" forumi, "Global iqtisodiy noaniqlik va raqamli transformatsiya sharoitida pul-kredit siyosati" mavzusi.
5. International Monetary Fund (IMF), Republic of Uzbekistan's Financial System Stability Assessment, 2025
6. Minsky, H. P. (1986). Stabilizing an unstable economy. Yale University Press
7. Diamond, D. W., & Dybvig, P. H. (1983). Bank runs, deposit insurance, and liquidity. Journal of Political Economy, 91(3), 401–419.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.